

ITALYAN VA O'ZBEK TILLARIDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING QIYOSIY PRAGMATIK TAHLILI

Keldiyorova Sevinch Jasur qizi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Email: Sevinchkeldiyorova2005@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0003-6580-3031>

Annotatsiya. Mazkur maqolada italyan va o'zbek tillarida xushmuomalalik strategiyalarining lingvistik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda so'rov, uzr va rad etish kabi nutq aktlari doirasida xushmuomalalik strategiyalarining ifodalanish usullari o'rganildi. Natijalar italyan tilida xushmuomalalik ko'proq grammatik vositalar orqali, o'zbek tilida esa leksik markerlar va hurmat bildiruvchi morfologik shakllar yordamida ifodalanishini ko'rsatdi. Shuningdek, diskurs markerlarining muloqotdagi pragmatik funksiyasi ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari xushmuomalalik strategiyalarining madaniyatlararo xususiyatlarini yoritib, ularning tarjima jarayonidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: italyan tili, pragmatika, xushmuomalalik strategiyalari, nutq aktlari, qiyosiy tahlil, diskurs markerlari, tarjima.

Abstract. This article examines politeness strategies in Italian and Uzbek from a comparative pragmatic perspective. The study focuses on the linguistic realization of politeness within speech acts such as requests, apologies, and refusals. The analysis shows that Italian politeness is often expressed through grammatical means, particularly conditional forms and pronominal distinctions, while Uzbek relies more on lexical markers and honorific morphological forms. The role of discourse markers in mitigating speech acts and maintaining communicative balance is also discussed. The findings highlight cultural differences in the expression of politeness and emphasize the importance of pragmatic adaptation in translation and intercultural communication.

Keywords: italian, pragmatics, politeness strategies, speech acts, comparative analysis, discourse markers, translation.

Аннотация. В статье рассматриваются стратегии вежливости в итальянском и узбекском языках с позиции сравнительной прагматики. Исследование направлено на анализ языковых средств выражения вежливости в речевых актах просьбы, извинения и отказа. Результаты показывают, что в итальянском языке стратегии вежливости чаще реализуются с помощью грамматических средств, тогда как в узбекском языке значительную роль играют лексические маркеры и морфологические формы выражения уважения. Особое внимание уделяется роли дискурсивных маркеров в смягчении речевых актов и поддержании коммуникативного равновесия. Полученные результаты имеют значение для исследований межкультурной коммуникации и переводоведения.

Ключевые слова: итальянский язык, прагматика, стратегии вежливости, речевые акты, сравнительный анализ, дискурсивные маркеры, перевод.

Kirish. Insoniyat muloqoti faqat axborot almashish jarayoni bilan cheklanmaydi. Har bir kommunikativ vaziyatda til orqali nafaqat ma'lumot yetkaziladi, balki suhbatdoshlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ham shakllanadi va tartibga solinadi. Shu sababli xushmuomalalik (politeness) kategoriyasi zamonaviy pragmalingvistikaning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xushmuomalalik muloqot jarayonida

shaxslararo hurmatni ta'minlash va kommunikativ ziddiyatlarning oldini olishga xizmat qiluvchi muhim pragmatik mexanizm sifatida talqin qilinadi [1].

Pragmatika doirasida xushmuomalalik tushunchasi ko'pincha suhbatdoshning ijtimoiy "yuzini saqlash" (face-saving) strategiyasi bilan izohlanadi. Brown va Levinson nazariyasiga ko'ra, nutq jarayonida so'zlovchi suhbatdoshining ijtimoiy obro'siga zarar yetkazmaslikka intiladi. Shu nuqtai nazardan, iltimos, taklif, uzr yoki shikoyat kabi nutq aktlari ko'pincha turli xushmuomalalik strategiyalari orqali ifodalanadi. G. Leech esa muloqotning muhim etik prinsipi sifatida talqin qilib, uni muloqot jarayonida muvozanatni saqlab turuvchi kommunikativ maksimalar tizimi orqali izohlaydi [2].

Xushmuomalalik strategiyalari har bir til va madaniyatda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Tilning grammatik va pragmatik vositalari ko'pincha jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Italyan tilida ko'pincha grammatik shakllar, murojaat birliklari va diskurs markerlari orqali ifodalanadi. Masalan, iltimos yoki so'rovni ifodalashda *condizionale* yoki *imperfetto* shakllarining qo'llanishi nutqni yumshatishga hamda suhbatdoshlar o'rtasidagi psixologik masofani tartibga solishga xizmat qiladi [3]. Shuningdek, diskurs markerlari va pragmatik signallar muloqotdagi xushmuomalalikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [4].

O'zbek tilida ham ushbu strategiyalar tilning grammatik, leksik va pragmatik vositalari orqali ifodalanadi. Jumladan, sizlash shakli, hurmat ma'nosini bildiruvchi ko'plik formalarining qo'llanishi yoki maxsus murojaat birliklari o'zbek nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bunday lingvistik vositalar nafaqat kommunikativ vazifani bajaradi, balki madaniy hurmat va ijtimoiy ierarxiyani ham ifodalaydi [5]. Shu bilan birga, turli madaniyatlarda xushmuomalalik strategiyalarining namoyon bo'lishi sezilarli darajada farq qiladi, chunki har bir madaniyatda muloqot etikasi va hurmatni ifodalashga xizmat qiluvchi lingvistik vositalar o'ziga xos tarzda rivojlangan [6]. Xushmuomalalikning madaniy xususiyatlari tarjima jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Bir tilga xos pragmatik strategiyalar boshqa tilga o'girilayotganda ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri leksik ekvivalentlar bilan ifodalanmaydi. Shu sababli tarjima jarayonida kommunikativ maqsadni va madaniy kontekstni saqlab qolish muhim hisoblanadi. Xushmuomalalik strategiyalarini tarjima qilish jarayoni tarjimondan nafaqat lingvistik bilim, balki madaniy va pragmatik kompetensiyani ham talab qiladi [7].

Ushbu maqolaning maqsadi italyan va o'zbek tillarida xushmuomalalik strategiyalarining grammatik va pragmatik ifodalanish usullarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning tarjima jarayonidagi xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida xushmuomalalik strategiyalarining lingvistik vositalari, madaniy omillari va tarjima jarayonidagi muammolari pragmalingvistik yondashuv asosida ko'rib chiqiladi.

Metodologiya. Tadqiqotning nazariy asosini pragmalingvistika va xushmuomalalik nazariyasiga oid ilmiy ishlanmalar tashkil etadi. Xususan, P. Brown va S. Levinson

tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik nazariyasi tadqiqotning asosiy metodologik tayanchi sifatida qo‘llanadi. Unga ko‘ra, kommunikativ jarayonda nutq aktlari ko‘pincha suhbatdoshning ijtimoiy “yuzini saqlash”ga qaratilgan strategiyalar orqali ifodalanadi.

Shuningdek, tahlilda G. Leech tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik prinsipi ham metodologik asos sifatida qo‘llanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, kommunikativ jarayonda xushmuomalalik turli etik maksimalar orqali namoyon bo‘ladi va ular nutq jarayonida ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Ushbu nazariya italyan va o‘zbek tillaridagi xushmuomalalik strategiyalarining madaniy xususiyatlarini izohlashda qo‘llanadi.

Tadqiqotda nutq aktlari nazariyasi ham muhim metodologik komponent sifatida qo‘llanadi. Nutq aktlarining pragmatik tabiati va ularning kommunikativ funksiyalari C. Bianchi tomonidan ishlab chiqilgan pragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv iltimos, uzr, taklif va shikoyat kabi nutq aktlarining xushmuomalalik strategiyalari bilan qanday bog‘liqligini aniqlash imkonini beradi.

Ilmiy ishda quyidagi metodlardan foydalanildi: 1. Qiyosiy tahlil metodi yordamida italyan va o‘zbek tillarida xushmuomalalik strategiyalari o‘zaro solishtirildi. 2. Pragmatik tahlil metodi orqali nutq birliklari kommunikativ kontekstda o‘rganildi hamda ularning suhbatdoshlar o‘rtasidagi roli aniqlandi. 3. Tarjimashunoslik nuqtai nazaridan esa xushmuomalalik strategiyalarining madaniy jihatlari va ularning boshqa tilga o‘g‘irilishidagi muammolar tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida xushmuomalalik strategiyalarining quyidagi lingvistik vositalari alohida tahlil qilindi: murojaat shakllari, grammatik yumshatish vositalari, diskurs markerlari hamda nutq aktlari. Ushbu vositalarning kommunikativ funksiyasi va madaniy xususiyatlari qiyosiy-pragmatik yondashuv asosida o‘rganildi.

Natijalar. O‘tkazilgan qiyosiy pragmatik o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, italyan va o‘zbek tillarida xushmuomalalik strategiyalari umumiy kommunikativ maqsadga xizmat qilsa-da, ularning lingvistik ifodalanish usullari turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Empirik materiallar tahlili natijasida xushmuomalalik strategiyalari asosan uchta asosiy nutq akti doirasida faol qo‘llanishi aniqlandi: so‘rov (request), uzr (apology) va rad etish (refusal).

Italyan tilida xushmuomalalik strategiyalarini ifodalashda grammatik vositalar, xususan condizionale shakli, pronominal tizim va bilvosita konstruktsiyalar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida esa xushmuomalalik ko‘proq leksik markerlar, hurmat bildiruvchi morfologik shakllar va diskurs markerlari orqali ifodalanadi.

So‘rov nutq aktlari

1-jadval

Potresti aiutarmi?	Menga yordam bera olasizmi?
--------------------	-----------------------------

Vorrei parlare con il direttore	Men direktor bilan gaplashmoqchi edim
Potrei avere un bicchiere d'acqua per favore?	Bir stakan suv bera olasizmi, iltimos?

Bunday konstruktsiyalar nutq aktining to'g'ridan-to'g'ri buyruq ohangini kamaytirib, uni yanada yumshoq va xushmuomala shaklga keltiradi. Italiyan tilida condizionale shakli aynan so'rovlarni yumshatish va hurmat ifodasini kuchaytirish uchun keng qo'llanadi [8]. Pragmatik tadqiqotlar ham bilvosita konstruktsiyalar ijtimoiy ierarxiya va rasmiy muloqot kontekstida keng qo'llanilishini ta'kidlaydi.

O'zbek tilida esa so'rov nutq aktlari ko'pincha leksik markerlar orqali yumshatiladi. Masalan: *"Iltimos, bu hujjatni ko'rib chiqib bera olasizmi?"*, *"Bir oz yordam bera olasizmi, iltimos?"* *"Agar imkoningiz bo'lsa, shu masalada yordam bera olasizmi?"*

Bu konstruktsiyalarda iltimos, agar imkon bo'lsa, iltimos qilaman kabi birliklar nutqning yumshoqligini ta'minlaydi va suhbatdoshga hurmat ifodasini kuchaytiradi.

Murojaat shakllari. Italiyan tilida hurmat darajasi ko'pincha *Lei* oppozitsiyasi orqali ifodalanadi. Masalan: *"Può aiutarmi?"* (norasmiy) *"Lei potrebbe aiutarmi?"* (rasmiy)

Rasmiy muloqotda *Lei* pronominal shaklining qo'llanishi suhbatdoshga hurmat ifodasini bildiradi va ijtimoiy masofani belgilaydi. O'zbek tilida esa hurmat kategoriyasi ko'proq morfologik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan: *"Bu masalani tushuntirib bera olasizmi?"*, *"Ustoz, bu savolga izoh berib bera olasizmi?"*

Bu yerda –siz qo'shimchasi, ko'plik shakli va hurmat bildiruvchi murojaat birliklarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Diskurs markerlari. Diskurs markerlari ham har ikki til tizimida muhim komponent hisoblanadi. Italiyan tilida keng qo'llanadigan markerlar: *per favore*, *per piacere*, *scusi*, *mi dispiace*. Masalan: *"Scusi, potrebbe ripetere la domanda?"*, *"Per favore, mi manda il file?"*, *"Mi dispiace, ma devo andare."*

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, *per favore* kabi markerlar so'rov yoki buyruqning keskinligini kamaytirib, muloqotning ijtimoiy muvozanatini saqlashga xizmat qiladi [9].

O'zbek tilida esa quyidagi markerlar keng qo'llanadi: iltimos, kechirasiz, uzr, afsuski. Masalan: *"Kechirasiz, yana bir bor tushuntirib bera olasizmi?"*, *"Uzr, men bugun uchrashuvga kela olmayman."*, *"Afsuski, bu taklifni qabul qila olmayman."*

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari italyan va o'zbek tillarida xushmuomalalik strategiyalarining ifodalanishida muhim lingvistik va pragmatik farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Har ikki til tizimida xushmuomalalik kommunikativ muvozanatni saqlashga xizmat qilsa-da, uning realizatsiyasi turli lingvistik vositalar orqali amalga oshadi. Bu hodisa til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik bilan izohlanadi.

Avvalo, tadqiqot italyan tilida ushbu strategiyalar ko'proq grammatik modifikatsiya orqali ifodalanishini ko'rsatdi. Xususan, condizionale shaklining qo'llanishi nutq aktining

pragmatik kuchini kamaytirish va kommunikativ vaziyatni yumshatish vazifasini bajaradi. Bunday tizim orqali suhbatdoshlar o'rtasidagi ijtimoiy status, rasmiylik darajasi va kommunikativ kontekst aniqlanadi [10].

O'zbek tilidagi xushmuomalalik strategiyalari esa boshqa lingvistik tamoyil asosida shakllanadi, ko'proq leksik markerlar va morfologik vositalar orqali. Ayniqsa, sizlash shakli va hurmat bildiruvchi affikslar o'zbek nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida ham hurmat kategoriyasi nafaqat grammatik hodisa, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi madaniy norma sifatida talqin qilinadi [11]. Bu hodisa o'zbek an'analarida hurmat kategoriyasining ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tarjima jarayonida pragmatik moslashuv muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bir tildagi xushmuomalalik strategiyasini boshqa tilga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish ko'pincha kommunikativ effektning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tarjimada so'zma-so'z ekvivalentlardan ko'ra funktsional pragmatik ekvivalentlardan foydalanish zarur. Bunday yondashuv ikki tilning kommunikativ normalari o'rtasidagi farqlarni hisobga olish imkonini beradi va muloqotning ijtimoiy muvozanatini saqlab qoladi [1,2].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari italyan va o'zbek tillarida xushmuomalalik strategiyalarining lingvistik realizatsiyasi turlicha bo'lishiga qaramay, ularning asosiy kommunikativ maqsadi o'xshash ekanligini ko'rsatadi. Bu holat til tizimlari va madaniy qadriyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage* (Vol. 4). Cambridge University Press.
2. Leech, G. N. (2014). *The pragmatics of politeness*. Oxford University Press.
3. Scaglia, C. (2003). *Deissi e cortesia in italiano*.
4. Bazzanella, C. (2010). *I segnali discorsivi*. In *Italant. Grammatica dell'italiano antico* (pp. 1339–1357). Il Mulino.
5. Xabibullayevna, A. N. (2026). Xushmuomalalik strategiyalarining til va madaniyat bilan bog'liqligi. *Tanqidiy Nazar, Tahliliy Tafakkur va Innovatsion G'oyalar*, 2(7), 470–473.
6. Shokirovna, F. M. (2025). Politeness strategies in Uzbek and English ELT textbooks: A cross-cultural pragmatic analysis. *Pedagogik Islohotlar va Ularning Yechimlari*, 16(02), 890–892.
7. Bruti, S. (2013). *La cortesia: aspetti culturali e problemi traduttivi*.
8. Petitta, G. (2006). Sull'origine del condizionale di dissociazione. *Studi linguistici italiani*, 32(2), 0-0.
9. Fedriani, C. (2020). La mitigazione degli atti richiestivi: variazione e mutamento nella storia dell'italiano. *Gabriella Alfieri, Giovanna Alfonzetti, Daria Motta e Rosaria Sardo (eds.), Pragmatica storica dell'italiano. Modelli e usi comunicativi del passato*.
10. Bianchi, C. (2011). *Pragmatica del linguaggio*. Gius. Laterza & Figli Spa.
11. Mahmudov, N. (2013). *Til va nutq madaniyati*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.